

BUXORO ARKI ME'MORIY MAJMUASINING TARIXI VA TURISTIK MASKAN SIFATIDA MADANIY HAYOTIMIZDA TUTGAN O'RNI

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
San'atshunoslik va Muzeyshunoslik fakulteti
Muzei menejmenti va madaniy turizm
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Irgasheva Sojida G'olib qizi*

Annotatsiya: O'zbek xalqining tarixi, o'tmishi va buyuk kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi Buxoro shahri hali ham dunyo madaniyatida alohida o'rin kasb etadi. Ayniqsa, ushbu shaharning tashrif qog'oziga aylangan "Buxoro arki" tarixiyligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Buxoro arki haqida kerakli va foydali ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Аннотация: Город Бухара, имеющий важное значение для истории, прошлого и великого будущего узбекского народа, по-прежнему занимает особое место в мировой культуре. Особенно выделяется своей историей «Бухарская арка», ставшая визитной карточкой этого города. В этой статье представлена необходимая и полезная информация о Бухарской арке.

Annotation: The city of Bukhara, which is important for the history, past and great future of the Uzbek people, still occupies a special place in world culture. "Bukhara Arch", which has become a business card of this city, is especially distinguished by its history. In this article, necessary and useful information about Bukhara Arch is presented.

Kalit so'zlar: Tarix, turizm, madaniy hayot, saroy, ark, qal'a, dalon, sayixona, chorsu, muzei qo'riqxonasi, masjid, paxsa.

Buxoro arki — Buxorodagi qadimgi shaharsozlik yodgorligi. Dastlab miloddan 1-asrda qurilgan. Shaharning qadimgi qal'asi. Arablar istilosiga qadar arkda shahar hokimlari — buxorxudotlar yashagan. Somoniylar davrida (9-10-asrlar) qayta qurilib devor va Burjlar bilan mustahkamlangan. Qoraxoniylar davrida (11-12-asrlar) va mo'g'ullar bosqinchiligi vaqtida (13-asr) Ark bir necha bor vayron qilingan. Hozirgi qiyofasi asosan Shayboniylar sulolasi davri (16-asr) da shakllangan. Balandligi 20 metrcha bo'lgan tepalik ustiga qurilgan arkning maydoni 4 gektar, tarxi ko'pburchakli. Turli davrlarda devorlari tosh, pishiq va xom g'isht, paxsalar bilan mustahkamlangan. O'pirilib tushgan joylari dastlab xom g'ishtdan, keyin pishiq g'ishtdan ta'mir etilgan. Ko'tarila boruvchi yo'l orqali G'arbdagi ulkan darvozadan (16-asr) ichkariga kiriladi (Sharq tomonida ham ilgari darvoza bo'lgan). Darvozaxona peshtoqining ikki yon tomonidagi «guldasta» va ular oralig'idagi 3 qavatli bino yaxshi saqlangan. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dalonyo'lakning chap devorida 12 va o'ng devorida 13 taxmontokcha qilingan. Chap tomonidagi tokchalarning ba'zilarida obxonaga kiriladigan eshiklar bor. Guldasta (burj)lar tagida zax va dim yerto'lalar bo'lgan.

Daloning o'ng tomonidagi o'rta tokchasida afsonaviy qahramon Siyovush ruhiga Navro'z bayramida chiroqlar yoqilgan. Amir sayisxona (otxona) siga ham shu yerdagi zinadan kirilgan. Dalondan chiqaverishda to'pchi boshi (saroy qo'riqchilari boshlig'i) ning Mahkamasi, shu erdagi ayvon tagida yerto'la bo'lgan (bu binolar buzilib ketgan). Undan sal narida (g'arbiy devor burchagida) peshayvonli jome masjid (saroy masjidi) qurilgan (18-asr oxiri). Masjid derazalari panjarali, devorlarining ichki tomonidagi naqshlar orasiga Qur'on oyatlari bitilgan. Peshayvon shifti murakkab girihdar bilan bezatilgan. Arkning shimoliy g'arbiy burchagida to'pchi boshining uyi va ta'mir ishlari ustidan nazorat qiluvchi kishi turadigan xona bo'lgan. Masjidning Sharq tomonida oshxona, orqa tarafida zarbxona (oltin, kumush va chaqa tangalar zarb qilinadigan joy) bor. Zarbxonaning shimoli sharqida zargarxona, Janubda devonbening Mahkamasi va qushbegiga qarashli binolar bo'lgan (ba'zilari hozir ham bor). Jome masjiddan boshlangan tor yo'lak qushbegi hovlisi orqali Chorsuga tutashgan. Chorsuning chap tomonida tosh yotqizilgan katta hovli — ko'rinishxona o'rnashgan. Unda elchilar qabul qilingan va amirlarning taxtga o'tirish marosimlari o'tkazilgan. Hovliga kiraverishda naqshli peshtoq bo'lgan (1605). Hovlining 3 tomoni ayvon bilan o'ralgan. Oldingi peshayvonda ikki qator naqshli ustunlar bo'lib, ularning tepasi kalla muqarnaslar bilan bezatilgan. Nurota marmaridan qilingan taxt shu ayvondagi taxtiravon tagida turgan. Hovlining Janub tomonida «Rahimxon mehmonxonasi» va qo'riqxona qurilgan (18-asr). Bu binolar tagida yerto'lalar bo'lib, ularda xazina saqlangan. Buxoro arkining shimoli sharqidagi Buxoro zindoni mang'itlar saltanati davrida qurilgan. Arkning G'arb tomonidagi hovlida mirzalar va boshqa xizmatchilar uchun ikki qavatli binolar qurilgan. Sal narida salomxona, undan Sharq tomonda mehmonxonalar, Amir hamda oliy mansabdorlarga qarashli boshqa binolar joylashgan (Miyon hovli). Janubda hammom, hammomning Sharq tomonidagi kichkina masjid hozirgacha saqlangan. Arkning markazida O'rda (Amir xotinlari turadigan uylar), shimolda qushbegi xotinlari turadigan uylar, hammomning sharqida Amir haramidagi qizlarning uylari, sharqida zodagonlar yashaydigan uylar bor. Shimoliy Sharqiy burchakda Childuxtaron masjidi va battol G'oziy mozori bo'lgan. Arkning Sharqiy devori bo'ylab g'ulombachcha (soqchilar kazarmasi), Janub Sharqiy burchagida dorixona (o'qdorilar ombori) joylashgan (arkning g'arbiy devoriga taqalgan binolarning bir qismigina sakdangan). Arkdagi qariyb 80 foiz imorat saqlanmagan. Arkning markazida (poydevor qoldiklari va xarobalari orasida) yer tagidan o'tgan mo'rilar Ark ichiga qarab ketgan katta sopol quvurlar ko'rinib turadi. Bular oqova suv quvurlarining qoldiqlari. Arkning g'arbiy devoridan boshqa hamma devorlari, burchaklardagi minoralar buzilib ketgan. Buxoro arki darvozasi oldidagi Registon maydonida ko'pgina imoratlar bo'lgan. Uning g'arbiy devoriga qaragan peshayvonga zambaraklar qo'yilgan. Ark darvozasining chap tomonida lashkarboshi mehmonxonasi, shimolida esa qurol-yarog'lar tuzatiladigan ustaxona va aslahaxona (qo'rxona) bo'lgan. Buxoro arkining shimoli sharqidagi «Childuxtaron» maqbarasi, Janubi g'arbda «Battol G'oziy xonaqohi», xos hammom qoldiqlari saqlangan. 1990-yilda arxeologlar tomonidan olib borilgan qazish ishlari natijasida Amir mehmonxonasi hisoblangan xonaqoh va uning

atrofidagi hujralarning poydevorlari, hovli ichkarisidagi supa, toshnov, tazar, sandal va yaxxonalar ochildi. Hammom tuzilish jihatdan murakkabligi yer osti tazarlari umumiy bir tarmoqqa bo'ysundirilganligi, shahar tashqarisidagi zahkashga qadar cho'zilganligi, to'rt tomonidagi gulax (o'txona)lari doimiy ravishda bir xil issiqlik berib turishi, yaxxonada muzni to kech kuzgacha saqlay bilishganligi aniqlandi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davrida Arkning g'arbiy devori qayta tiklangan[1]. Aleksandr Semyonov Ark tarixini yozishni maqsad qilgan „Tarix jamiyati“ deb nomlangan komissiya tuzilgani haqida xabar beradi.

1970—1980-yillarda Arkda qisman arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Keng qamrovli arxeologik qazishmalar, ayniqsa, Arkning janubiy qismida va unga tutash hududlarda haligacha olib borilmagan. Arxeologlarning fikricha, aynan ular Buxoroning haqiqiy yoshi haqida aniqroq ma'lumot berib, Narshaxiyning Buxoroning yoshi X asrda 3000 yil bo'lganligi haqidagi afsonaviy ma'lumotlarini rad etadi yoki tasdiqlaydi. 1970—1974-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi Yahyo G'ulomov boshchiligida tashkil etilgan maxsus arxeologik guruh tomonidan Arkda yirik statsionar qazishmalar olib borilgan. Qal'ada 120x100 m maydonda XVI—XX asr boshlariga oid ustki qatlamlar qazilgan. 1979—1980-yillarda Buxoro arkini arxeologik o'rganish tarixida birinchi marta stratigrafik chuqur (6x6 metr) materik qatlamiga chuqurroq borish imkonini berdi. Bu yerdagi madaniy qatlamlarning qalinligi 20 metrdan oshdi va bu qiymatning uchdan bir qismi yer ostida bo'lgan. 13-15,5 metr, shuningdek, 16,5-18,5 metr chuqurlikda ikkita kuchli sinch devor qoldiqlari topilgan, ushbu ashyolar Arkning qadimgi mudofaa inshootlari tizimining bir qismi bo'lganligi taxmin qilingan. Birinchi devor 2,5-3 metr balandlikda saqlanib qolgan va u yerda eramizning IV—V asrlariga oid sopol material topilgan, ikkinchisi — 2-2,5 metr balandlikda — miloddan avvalgi IV—III asrlarga to'g'ri keladi. Shubhasiz, bular Buxoroning qadimiy qal'a devori xarobalari bo'lib, shahar shakllanishining eng muhim qismlaridan biri bo'lgan.

Hozirgi kunda ushbu Buxoro arki mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turistlar sonining ko'payishida ham alohida ahamiyatli maskanga aylangan. Shu munosabati bilan me'moriy yodgorlik rekonstruksiya qilinib, ta'mirdan chiqarildi va tomoshabinlar uchun hozirgi kunda ochiq. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan Ark ichkarisidagi taxt joylashgan hovli ta'mirlanib, o'z holiga keltirildi. Ark devorlari yangilandi. «Go'riyon» darvozasi qayta tiklandi va boshqa obodonlashtirish ishlari olib borildi. Arkda Buxoro davlat me'moriy badiiy muzey-qo'riqxonasi ham tashkil etilgan va ushbu qo'riqxonada ark hududidan topilgan noyob arxeologik topilmalar ham saqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. "Buxoro tarixi"- Muxamedjanov. O'quv qo'llanma. 2004 yil.
3. Архитектурная эпиграфика Узбекистана 2016, s. 29